



## MUQIMIY HAJVIY MEROSI

*Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi*

*Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya va buxgalteriya fakulteti 1-kurs SD-61 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Muqimiy yashab o'tgan davrda sodda xalqimiz ustida nazorat qilgan mansabdor va amalparast shaxslarning qanchadan qancha qallopliklari aks ettiruvchi asarlar to'g'risida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Muqimiy hajviyoti , saylov , loy , yuzboshi , mingboshi.*

Qadimda yurtimiz hududlarida mansablar manarxiya shaklida b'olib , otadan bolaga meros qolishligi yoki joriy suloladan maqul topilgan shaxsni tayinlashi sababli o'sha davrda diyorimizga hukumronlik qilganlarning boshqarish tizimiga k'ora biz uchun "saylov " bu mutlaqo yangilik edi . Uni to'la tafakkur etish oddiy xalqqa qiziq emas , ayni damda foydasiz ham edi .Negaki , chor mamurlari nazorati ostida b'olib o'tgan saylov jarayonlari batamom porax'orlik , tanish-bilishchilik kabi illatga tayanar edi . O'sha davrining yetuk , ma'naviyatli adiblaridan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiy bu k'oz b'oyamachiliklarga chiday olmay dastlab o'zining "Saylov " asarini yozadi . Asarda mamlakatda burjuaziya davrida hukum surgan chorizimning ich-ichidan chirib , nurab borayotganligini , butunlay inqirozga yuz tutganligini va razil xatti-harakatlarni ro'yi-rost kulgu ostida ochib tashlaydi . Chuqur tanqidiy yondashuv va ta'sirchan ifoda yozuvchining mahoratini ifodalash bilan birga , u o'quvchiga o'sha zulmlil kunlarni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi .Garchi shunday b'olsada bu qimmatli she'r yillar o'tib 1956-yilda topildi . Muqimiyning "Saylov " hajviyasi o'zbek adabiyotida bu mavzuning keyinchalik yanada chuqur va keskin ruhda ishlanishiga mustahkam zamin b'oldi .

Qachon kim b'oldi hokim amri ila ibtido saylov .

Amaldor ahli boshiga balo b'olib keldi saylov .

Terak bargidek tirab necha qozi-yu mirshab ,

Degoylarmish : Yuzin teskari qil ey Xudo saylov .

Muqimiy o'zining "Saylov" asari orqali nafaqat yuzboshi , mingboshi , qozilarning asl basharasini ochadi , balki bunaqa adolatsizliklarsiz yoru'g' kelajakni kutishini ham izohlaydi. Adib butun umri davomida kamba'g'allik , azob -uqubatning asiridek yashagan b'olsada, uning aksariyat asarlari chuqur optimizm bilan su'goriladi .

Muqimiy , o'g'ridi boshlar xalaqiy gufti-guyidin.

Shahar tinchib qolardi b'olsachi emdi ado saylov .

Muqimiy XIX asrning marifatli kishilaridan b'olib , u ham iqtisodiy ham siyosiy bilimlar borasida o'tkir dunyoqarashga ega b'olgan va uning intilishlari uning ijodida tanqidiy y'onalishni maydonga keltirdi . Hajviyoti mazmunan satira va yumorga b'olinadi . Turli xil mavzularda 30 ga yaqin hajviyotlar uchun qalam tebratgan . Satiralarida bosh mavzu burjuaziya davridagi chor amaldorlari , ayrim mahaliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan .Fikrimizning dalilini "Tanobchilar " , "To'y" , "Hajvi Viktor boy" , "Saylov " asarlari orqali k'orish mumkin .Shuningdek yozuvchi badiiy adabiyotga mansub yumoristik ijodlarida ijtimoiy hayotdagi , shaxsiy turmushdagi xususan ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik-nuqsonlardan kulib , uni tanqid qiladi . Lekin , yozuvchi tanqid qilayotgan obyektning y'oqolishiga tarafdor emas , unga achinadi , undagi mavjud kamchilikning tuzatilishini istaydi (Ta'rifi pech , Aroba , Loy ).



## Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)

Muqimiy asarlarining qadrini oshiruvchi yana bir omil shundaki , u asrlar oldin kòtargan mavzular hali-hanuz dolzarbligini yòqotmagan .Xususan "Loy" she'rini olsak asl xalq dardini kuylaydi . Yòllarning qanchalik achnarli ahvoldaligini òzining bir kòchaga chiqishi bilan izohlaydi .

Kòchaga chiqmoqqa lekin saxt hayron qildi loy

Qor yoğib , qaytib bahor erdi - zimiston qildi loy .

Barfu bòron ustiga tinmay yoğib bòlганиغا

Òzi ham choğimda òlguncha pushaymon qildi loy .

Bilamizki , qish fasli davomida qor yoğib qatgan yerlar bahor kelishi bilan yumshab hamma yoqni loy qiladi va bu ham yetmagandek yomg'irlarda botqoqqa aylanuvchuvchi kòchalar aholini tinka -madorini quritadi .Bugungi , kunda muhtaram prezidentimiz tomonidan xalq uchun olib borilayotgan savobli ishlardan biri "Obod mahalla" dasturi bòldi . Ushbu harakat doirasida yurtimiz mahallalari yanada rivojlanib , kòrkamlashmoqda . Yuqorida Muqimiy arz-u dod qilgandek , dilni xira qilguvchi yòllar kundan-kun qisqarib bormoqda .

Kòchaga chiqqoch Muqimiy kallasini oğurtirib,

Yaxshi qildi , nafsi kofirim musulmon qildi loy .

Muqimiy oddiy xalq bilan bir nafas bòlib shu kabi kambağal , nochor hayotning tamini totib yashadi . Uning bor boyligi uning ilmi , kitoblari va betakror ijod asarlari edi .Bu iste'dodi uchun chor hukumati ham uni katta hovli , tòkis hayot , mansab , pul evaziga òzlariga ishlashini kòp bor taklif qiladi . Òsha paytlarda ancha oğir bòlib , och nahorlikdan , kichkinagina zax hujrada yashashdan yòqolgan salomatligini tiklaah uchun moliyaviy kòmakka muhtoj bòlsa ham shoir òzligini sotmaydi .Undagi halollik , adolat , sadoqat , xalqparvarlik singari chin insoniylikka xos xislatlari xalqi uchun yozishga undayveradi .

Xulosa qilib aytadigan bòlsak , Muqimiy asarlarining yengil tabiati , ravon òqilishi , tòğridan tòğri yuraklarga yetib borishi bu xalq hayotiga yondashib, uning armonini , dardini achchiq iztiroblar bilan ifodalaganligida va ayniqsa bu alamlarning hajviya bilan uyğunlashuvi ajoyib asarlarning yaralishiga sabab bòlganligidadir .

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi T.:O'zbekiston .1993
2. Toshkanov S. O'zbek adabiyotida satirik xarakter peoblemasi . T:1997
3. O'zbek mumtoz adabiyoti . T.: “.O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi “. 2006